


2018 yil yanvar–iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar soni

2018 yil yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 2722,7 ming nafarni tashkil etdi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 martaga ko‘p. O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 1425,7 ming nafari (52,4%) erkaklar, 1297,0 ming nafari esa (47,6%) ayollarni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 7002,3 ming nafarni tashkil etdi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 martaga ko‘p. Ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining 4272,0 ming nafari (61,0%) erkaklar, 2730,3 ming nafari esa (39,0 %) ayollarni tashkil etadi.


O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo‘yicha taqsimlanishi, foizda

1 rasm



Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, foizda


2 rasm



O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 4,4 ming nafari (38,1% erkaklar, 61,9% ayollar) o'qish maqsadida, 23,7 ming nafari (81,2% erkaklar, 18,8% ayollar) tijorat maqsadida, 29,6 ming nafari (38,2% erkaklar, 61,8% ayollar) davolanish maqsadida, 19,5 ming nafari (70,9% erkaklar, 29,1% ayollar) ishlash maqsadida, 27,7 ming nafari (83,1% erkaklar, 16,9% ayollar) xizmat yuzasidan, 170,2 ming nafari (52,8% erkaklar, 47,2% ayollar) sayyohlik maqsadida, 2065,9 ming nafari (46,4% erkaklar, 53,6% ayollar) qarindoshlarni borib ko'rish maqsadida kelgan.

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, foizda


3 rasm



Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 21,7 ming nafari (46,1% erkaklar, 53,9% ayollar) davolanish maqsadida, 15,3 ming nafari (63,3% erkaklar, 36,7% ayollar) o'qish maqsadida, 170,5 ming nafari (53,3% erkaklar, 46,7% ayollar) sayyohlik maqsadida, 57,5 ming nafari (91,5% erkaklar, 8,5% ayollar) xizmat yuzasidan, 2274,7 ming nafari (75,2% erkaklar, 24,8% ayollar) ishlash maqsadida, 3945,2 ming nafari (51,1% erkaklar, 48,9% ayollar) qarindoshlarni borib ko'rish maqsadida ketgan.

Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, foizda


4 rasm



2018 yil yanvar-iyun oylari davomida ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinadiki 56,3% (3945,2 ming nafar) qarindoshlarni borib ko'rish uchun, 2,4% (170,5 ming nafar) sayyohlik maqsadida, 0,8% (57,5 ming nafar) xizmat yuzasidan, 32,5% (2274,7 ming nafar) ishlash maqsadida, 0,3% (21,7 ming nafar) davolanish, 0,2% (15,3 ming nafar) o'qish maqsadida ketgan.

2018 yil yanvar-iyun oylarida ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, ming kishi

5 rasm



2018 yil yanvar-iyun oylari davomida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinadiki, ularning 75,9% (2065,9 ming nafar) qarindoshlarni borib ko'rish uchun, 0,7% (19,5 ming nafar) ishlash maqsadida, 1,0% (27,7 ming nafar) xizmat yuzasidan, 6,3% (170,2 ming nafar) sayyohlik maqsadida, 1,1% (29,6 ming nafar) davolanish, 0,2% (4,4 ming nafar) o'qish maqsadida tashrif buyurgan

2018 yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni, ming kishi

6 rasm

